

MULTFILMLARDA IMO-ISHORALARNING AHAMIYATI

M. Bobomurodova ¹

(Ilmiy rahbar: G.X.Xasanova, SamDCHTI dotsenti v.b., PhD)

Annotatsiya:

Ushbu maqolada multfilmdagi imo ishoralarning ahamiyati va ularning bolaga ta'siri, noverbal vositalar haqida tilshunoslarning fikrlari, ularning bola rivojlanishidagi ahamiyati haqida ma'lumot berilgan. Imo-ishoralar axborot yetkazishning muhim vositalaridan biri bo'lib, til vositalariga qaraganda ta'sirchanroq va tezroq axborot yetkazuvchi hisoblanadi. Multfilmlar bolalar tomonidan sevib tomosha qilinadigan ko'ngilochar tamoshalar bo'lib, undagi qahramonlar bolalar ruhiyati va tarbiyasiga tezda ta'sir etuvchi omillar hisoblanadi. Bolalar multfilm qahramonlarining noverbal harakatlariga ko'proq e'tibor qaratishadi va qaytarishga harakat qilishadi. Ushbu maqolada multfilmlarning bolalar rivojlanishidagi ahamiyati yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: multfilm, imo-ishoralar, emotsiyalar, noverbal vositalar, deydik hodisa

doi: <https://doi.org/10.2024/qfa0xm87>

Hozirgi kunda har bir bola uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan va uni o'ziga beixtiyor tortadigan narsalardan biri bu multfilmlardir. Multfilmlar o'zi nima? Multfilm – bu odatda real bo'lmagan yoki yarim realistic uslubda chizilgan, ba'zan jonlantirilgan illyustratsiyaning eng keng tarqalgan bir turidir [1]. Nima sababdan hozirgi kundagi bolalarni bunchalik o'ziga jalb qilmoqda, chunki multfilmlardagi qahramonlarning harakatlari va imo-ishoralari insonni o'ziga tortadi. Imo-ishoralar esa yosh-u qari uchun birdek ahamiyatlidir. Insonni fikrlarini aniqroq va qay darajada ta'sirchan bo'lishi uning imo-ishoralari, memikalariga bog'liq. Noverbal muloqot va xulq-atvor to'g'risidagi ilmiy izlanishlar 1872-yilda Charlez Darvinning “Insonlar va hayvonlarda emotsiyalar ifodasi” nomli asarining nashriyoti bilan boshlandi. O'sha vaqtdan buyon, so'zlarsiz muloqot va xatti-harakatlarning turlari, ta'siri va ularning ifoda etilishi bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borildi [2]. Maktabgacha ta'limda o'qiyotgan bolalari va undan kichik yoshdagi bolalar multfilmlar tomosha qilishsa, har xil emotsiyalar bilan ko'rishadi. Bunga qahramonlarning ta'siri katta. Masalan, Tom and Jerry, qizaloq va maymoqdagi ayiqvoysiz ham bu multfilmlarni tomosha qilsangiz vaqt qanday o'tganligini his qilmaysiz.

¹ Bobomurodova Marjona, Samarqand davlat chet tillar instituti talabasi



1-rasm 2-rasm

Bularda hech qanday ovoz yo'q ammo hamma yoqtiradi, bundan kelib chiqib biz til o'rnini ham imo-ishoralar bajara olar ekan degan xulosaga kelishimiz mumkin. Bu suratlardan nimani anglash mumkin 1- suratda ikkalasi ham xursand ekanligini, 2- suratdan esa ular yonidagi narsalardan juda ham qo'rqishmoqda.

Jon Till va Kourtland Boveye muloqotning eng asosiy formasi noverbal muloqot: shamalar, imo-ishoralar, ovoz toni, joy munosabatlari va so'zsiz muloqot qilishga mos vaqt ekanligini ta'kidlashadi [3].

Bular farzandlarimizga qanday yordam beradi deb o'ylaysiz. Tabiiyki, hamma bolalar qiziquvchandir va ular uchun bunday rang-barang va taassurot uyg'otuvchi voqealar esda qolarli bo'ladi. Nega aynan multfilmlardagi imo-ishoralar. Bugungi kunda ko'plab ota-onalar bular yangi til o'rganish uchun ayni muddao deb o'ylashadi. Ya'ni yangi ommalashgan metodikalardan biri. Bolalar imo-ishoralarni, ya'ni yuz mimikasi bilan aytilgan so'zlarni yaxshiroq tushunadilar [6]. Qahramonlar harakatlarida buyruq berish, rag'batlantirish, samimiy suhbatlashish, tushuntirish narsasining muhimligini aytishda yuz imo-ishoralaridan foydalanishganda bolalar buni tezda tushunishadi. Bolaga hech qanday harakatsiz bir so'zni takrorlasangiz u bir zumda yodidan chiqarib qo'yishi mumkin, ammo uning o'rniga shu so'zni harakatlar (imo-ishoralar) bilan tushuntirsak uning yodida tez va uzoq muddatga saqlanadi. Shu sababdan ham multfilm tomosha qilish til o'rganishning oson va qulay usuli bo'lib qoldi.

Bundan tashqari imo-ishoralarning ham ko'p turlari mavjud va ular ramziy, deytik, belgili, metaforik va ritmik kabilardir. Ushbu imo-ishoralar Ichida deytik imo-ishoralar alohida ahamiyatga ega. Deyksis hodisasi universal bo'lib, deytik imo-ishoralar uning bir qirrasidir. Deytik imo-ishoralar nutqda verbal vositalar bilan qo'llaniladigan, ma'lum narsa, shaxs, joyni ko'rsatib turuvchi harakatlardir [5]. Ushbu imo-ishoralarni qo'llash uchun kontekst muhimdir, chunki so'zlovchining yetkazayotgan axboroti to'g'ri qabul qilinishi kontekstual muhitga bog'liq. Deyksis (deixis) umumiy so'zlar va so'z birikmalarining maxsus zamon, makon yoki shaxsni kontekstda aniqlash uchun ishlatilishdir. Chunonchi, bugun, u yer, biz kabi so'zlar. Biz nafaqat so'zlar bilan, balki imo-ishoralar bilan ko'rsatamiz. Deyksis so'zi tilshunoslik va pragmatikada ishlatiladi hamda so'z va so'z birikmalarining kontekstda ishlatilishini ifodalaydi [4]. "Maktabgacha yoshdagi bolalarga buni qanday o'rgatish mumkin?"-deb o'ylashingiz mumkin. Ammo hozirgi rivojlangan davrda hamma narsani telefon yoki televizor orqali o'rganish imkoni bor. Masalan, ular bunday narsalarni multfilmlar tomosha qilish davomida o'rganib olishlari mumkin. Qahramonlarning noverbal harakatlari ham yosh bola uchun katta ahamiyat kasb etadi. Multfilmlardagi harakatlar ma'lumot yetkazuvchi vazifasini bajaradi. Bola bularni ko'rish jarayonida, ko'plab bilmagan tushunmagan so'zlariga duch

keladi ammo ikki uch marta shu multfilmni ko'rganda noverbal harakatlar yordamida nima deyayotganini anglab oladi.



3-rasm 4-rasm

Barcha imo-ishoralar ham yaxshi ma'nolar bilan birga boshqa bir mamlakatlarda qo'pol ya'ni yomon ma'nolari ham bor. Aynan bu belgi "iblis belgisi" bo'lib, bu harakat afrikada la'natlash ma'nosini anglatadi (3-rasmga qarang). Ko'rsatgich barmoq bilan "unga qarang" bu jest O'rta Sharq va Uzoq Sharqda insonlarga ishlatilsa haqorat hisoblanadi (4-rasmga qarang).

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, multfilmlar orqali ham taassurotni ham fikrlashni o'stirish mumkin va qahramonlarning noverbal harakati ham verbal harakat kabi katta ahamiyat kasb etadi. Bolaga til o'rganishda ham ikkala harakatning ham o'rni borekan. Harakatlar orqali bola xotirasida tezroq saqlanib qoladi. Demak, hamma jestlar va imo-ishoralar ham yaxshi ma'no anglatavermaydi. Bolalarni hammasiga e'tiborli bo'lishga undash lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1]. Muhammad Naeem Butt. *Impact Of Non-Verbal Communication On Students' Learning Outcomes*. – Peshawar, Pakistan, 2011. – P.11. 15
- [2]. Xasanova Gulrux Xayrullayevna "Dialogik nutqda noverbal vositalarning pragmatik xususiyatlari" Samarqand-2023 135-b.
- [3]. Khasanova G.Kh. Some considerations on pragmatics and nonverbal means. *Journal of intellectual property and human rights*. Issue 2720-6882. P. 72-78.
- [4]. Khasanova G.Kh. The effect of mimics and vision in teacher-student communication. *International scientific and current research conferences*, 1 (1), 61-64
- [5]. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Multfilm>
- [6]. <https://newjournal.org/index.php/new/article/download/5851/5613/7933>
<https://newjournal.org/index.php/new/article/download/5851/5613/7933>